Maxfiylik siyosati

USHBU MAXFIYLIK SIYOSATI 30.12.2022 YILGA QADAR AMAL QILGAN

1. QO‘LLANILISH SOHASI VA TASDIQLASH

1.OLX.UZ servisidan foydalanuvchi jismoniy shaxslarga doir shaxsiy ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ro‘yxatdan o‘tgan, quyidagi manzilda: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, A.Qodirov ko‘chasi, 43-uyda joylashgan “OLX CLASSIFIEDS” Mas‘uliyati cheklangan jamiyat (bundan buyon matnda – Kompaniya) tomonidan qayta ishlanadi. Kompaniya OLX.UZ foydalanuvchilarining shaxsiy ma‘lumotlari bazasining egasi va operatori hisoblanadi.

2.OLX.UZ foydalanuvchilarining shaxsiy ma‘lumotlarini saqlash bazasi kompaniya serverlarining joylashish manzillari,O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan.

3.Ushbu Maxfiylik siyosati Kompaniya tomonidan o‘rnatilgan www.OLX.UZ sayti (bundan buyon – sayt), OLX mobil ilovasi (bundan buyon–mobil ilova) yordamida to‘plangan shaxsiy ma‘lumotlarni qayta ishlash tartibini va ular bilan bog‘liq xizmatlar hamda foydalanuvchilarga Saytda ro‘yxatdan o‘tish, e‘lonlarni joylashtirish yoki joylashtirilgan e‘lonlarni real vaqt davomida ko‘rib chiqish, shuningdek yuqorida sanab o‘tilgan OLX servisi bilan bog‘liq boshqa xizmatlardan foydalanish imkoniyatini beruvchi vositalarni tavsiflaydi. Qayd etilgan barcha holatlarda Kompaniya tomonidan foydalanuvchilarning shaxsiy ma‘lumotlari faqat O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va Shaxsiy ma‘lumotlarga qayta ishlov berishni avtomatlashtirish maqsadida shaxslarni muhofazalash to‘g‘risidagi Konventsiya talablari doirasida qayta ishlanadi. Ushbu Maxfiylik siyosati ularda keltirilgan qoidalarga muvofiq ishlab chiqilgan.

4.Saytdan va/yoki mobil ilovadan va/yoki boshqa unga bog‘liq OLX servis va vositalaridan foydalanish davomida, Foydalanuvchi o‘ziga tegishli shaxsiy ma‘lumotlarni, ya‘ni foydalanuvchining nomi; yashaydigan mintaqasi, elektron pochtasi manzili, telefon raqami, bog‘lanish uchun boshqa ma‘lumotlarni va faqat foydalanuvchining roziligi bilan esa: ip-manzil, aloqa o‘rnatish uchun foydalanuvchining boshqa ma‘lumotlari; foydalanuvchiga boshqa foydalanuvchi tomonidan yoki aks tartibda uzatiladigan xabarlar, xatlar, arizalarni qayta ishlashga hamda o‘z shaxsiy ma‘lumotlarini Kompaniya tomonidan uchinchi shaxslarga, shu jumladan mamlakat chegarasidan tashqariga, istalgan uchinchi mamlakatga uzatilishiga, ushbu Maxfiylik siyosatiga va OLX.UZ servislaridan foydalanish bitimiga muvofiq ravishda Kompaniyaga topshirishga o‘z roziligini beradi.

5.Foydalanuvchilar saytda yoki mobil ilovada joylashtirilgan ba‘zi o‘zga ilovalarga o‘tilganda, Foydalanuvchilar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar Kompaniya xosting chegarasidan tashqaridagi, ya‘ni Kompaniyaning bevosita nazoratidan tashqarida to‘planishi mumkin bo‘lgan boshqa kompaniyalarning saytlariga (ilovalarga va h.k.ga) qayta yo‘naltirilishi ehtimoli borligidan xabardor bo‘lishlari kerak. Bunday holatlarda mana shu uchinchi shaxslar tomonidan foydalanuvchilar haqida olingan ma‘lumotlar saytlar va/yoki uchinchi shaxslar ilovalarining Maxfiylik siyosati tomonidan tartibga solinadi.

2. KOMPANIYA TOMONIDAN TO‘PLANADIGAN, OLINADIGAN VA JOYLASHTIRILADIGAN MA‘LUMOTLAR

1. Akkauntlar to‘g‘risida ma‘lumotlar: Foydalanuvchi saytda ro‘yxatdan o‘tishi davomida Kompaniya tomonidan muayyan bir ma‘lumotlar talab qilinishi mumkin, xususan, elektron pochtaning haqiqiy manzili va parol, passport ma’lumotlari. akkauntlar geografik o‘rni, ism va familiyasi, telefon raqami kabi ma‘lumotlar va boshqa qo‘shimcha ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi, shuningdek ular tomonidan o‘z qayd yozuvi ichiga yuklab qo‘yilishi mumkin bo‘lgan suratlar ham talab etilishi mumkin. {akkauntlar foydalanuvchilarga takliflarga bo‘lgan qiziqishlarini bildirish uchun o‘zaro bir-birlari bilan bog‘lanish imkoniyatini beradi}. Jami yuklab olish mumkin bo‘lgan akkauntlar ichiga joylashtiriladigan ma‘lumotlar uchun barcha javobgarlik Foydalanuvchining zimmasida bo‘ladi. Foydalanuvchi muayyan bir ma‘lumotlarni joylashtirayotganda – xususan yashash manzili yoki o‘zining aniq joylashgan yerini barchaga ma‘lum qilayotganida barcha xavf-xatarlardan voqif bo‘lishi, ularni ko‘rib chiqishi talab etiladi. Agar foydalanuvchi tashqi operatorning, masalan, Facebook ma‘lumotlarini autentifikatsiya xizmatidan foydalangan holda saytga kirishga qaror qilgan bo‘lsa, Kompaniya bunday uchinchi shaxs tomonidan taqdim etilayotgan ma‘lumotlar asosida qo‘shimcha profil yoki boshqa ma‘lumotlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

2.E‘lonlar va Bitimlar: O‘z sayti faoliyati doirasida Kompaniya turli ma‘lumotlarni, xususan, xaridor bilan sotuvchi o‘rtasidagi bitimlarni amalga oshirish uchun, xabarlar jo‘natish va foydalanuvchilar o‘rtasida muloqot o‘rnatish, to‘lovlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘ladigan shaxsiy va bog‘lanish tavsifiga ega ma‘lumotlarni joylashtirishi mumkin. E‘lonlarni joylashtirish uchun zarur bo‘ladigan barcha ma‘lumotlar akkauntlarni yaratishda talab etiladi. Foydalanuvchilar saytda o‘zlari joylashtiradigan barcha ma‘lumotlar uchun javobgar hisoblanadilar. Foydalanuvchi muayyan bir ma‘lumotlarni – xususan manzili yoki boshqa shaxsiy ma‘lumotlarini barchaga oshkor qilishi bilan bog‘liq barcha qaltisliklarni diqqat bilan ko‘rib chiqishi shart.

3.O‘yinlar, Reklama va Targ‘ibot: Kompaniya o‘z saytidagi operatsiyalar doirasida, misol uchun foydalanuvchilarning Kompaniyaning bevosita yoki bilvosita saytlarida tashkillashtiriladigan o‘yinlarda, viktorinalarda va boshqa marketing aktsiyalarida ishtirok etishlari davomida ular haqidagi shaxsiy ma‘lumotlarni, masalan, ism va aloqa o‘rnatish uchun ma‘lumotlarni to‘plashi mumkin. Kompaniya o‘z sayti faoliyati davomida reklama kampaniyalarining samaradorligi bilan, shu jumladan Saytda yoki uchinchi shaxslarning saytlarida qanday e‘lonlar ko‘zda tutilishi bilan bog‘liq bo‘lgan ma‘lumotlarni ham qayta ishlashi mumkin.

4.Mijozlarga xizmat ko‘rsatish: Foydalanuvchilar mijozlarga xizmat ko‘rsatish bo‘limiga murojaat qilganlarida, Kompaniya – o‘z sayti operatsiyalari doirasida – Foydalanuvchi so‘rovnomasini to‘ldirish uchun va zaruriyat yuzaga kelganda qayta bog‘lanish uchun talab etiladigan shaxsiy ma‘lumotlarni to‘plashga haqli. Kompaniya shuningdek, qayd yozuvidagi qayta bog‘lanish maqsadida taqdim etilgan zarur mavjud ma‘lumotlardan foydalangan holda, Foydalanuvchi bilan bog‘lanishi ham mumkin. Shuningdek, Kompaniya Foydalanuvchilar bilan muloqot o‘rnatishda boshqa ma‘lumotlarni ham, masalan, Foydalanuvchilar tomonidan beriladigan

qo‘llab-quvvatlash xizmatiga rasmiy so‘rovnoma yoki ular tomonidan taqdim etiladigan teskari aloqa ma‘lumotlarini ham yig‘ishi mumkin.

5.Veb-sayt va mobil ma‘lumotlar: Kompaniya o‘z serverlarida avtomatik ravishda foydalanuvchi brauzeridan yoki boshqa istalgan qurilmadan, jumladan IP-manzil, dasturiy ta‘minot, apparat atributlari, Foydalanuvchi so‘ragan sahifalar, mobil identifikatorlardan olingan ma‘lumotlarni, ilovadan foydalanganlik to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni va/yoki boshqa foydalaniladigan qurilmalar haqidagi ma‘lumotlarni yoki tizimli pog‘onadagi ma‘lumotlarni olishi va qayd etib borishi mumkin. Bu saytda yoki mobil ilovada yoki uchinchi shaxslarning servislarida yuz berishi mumkin. Foydalanuvchi qay tarzda bu kabi ma‘lumotlarning to‘plab borilishini nazorat qilishi va/yoki blokirovka qilib qo‘yishi to‘g‘risidagi qo‘shimcha ma‘lumotlar quyida, ushbu Siyosatning 6-bo‘limida keltiriladi.

6.Ilova qilinadigan ma‘lumotlar: Kompaniya, shuningdek, o‘z Foydalanuvchilari haqidagi mavjud ma‘lumotlarga o‘zining hamkorlari yoki uchinchi tomondan qonuniy ravishda olgan ma‘lumotlarini ham qo‘shib qo‘yishi mumkin. Kompaniya to‘plamaydigan va qayta ishlamaydigan ma‘lumotlar: Kompaniya irqqa yoki etnik kelib chiqishga doir ma‘lumotlar, siyosiy, diniy e‘tiqodi yoki dunyoqarashlari, siyosiy partiyalarga va kasaba uyushmalariga a‘zoligi va boshqa shunga monand ma‘lumotlarni to‘plamaydi va qayta ishlamaydi.

7. Ko'p foydalanuvchilar Internet-platformalarida (ijtimoiy tarmoqlarda) foydalanuvchining profayllaridan foydalanish mumkin bo'lgan ma'lumot: Saytda ro'yxatdan o'tishda, yoki ijtimoiy tarmoqlarning autentifikatsiya xizmatlari yordamida saytga kirishda Foydalanuvchi Kompaniyaga ijtimoiy tarmoqlardagi tegishli profayllardan foydalanish mumkin bo'lgan ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlashga, shuningdek, tegishli ijtimoiy tarmoqlarda Foydalanuvchining Saytdagi va/yoki mobil ilovadagi harakatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni e’lon etishga rozilik beradi.

8. Biz sizning boshqa foydalanuvchilar bilan o'zaro aloqalaringizdan so'ng bergan reytinglaringiz va sharhlaringiz, shuningdek, boshqa foydalanuvchilardan olgan reytinglaringiz va sharhlaringiz to'g'risidagi ma'lumotlarni bizning Foydalanish shartlariga muvofiq to'playmiz. Biz buni tranzaktsiyalar tajribasiga nisbatan foydalanuvchilarning qoniqishlarini o'lchash, foydalanuvchilar o'rtasida maqbul va samarali aloqa darajasini ta'minlash, shuningdek, bizning xizmatlarimiz bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar doirasida istalmagan faoliyat va xatti-harakatlarni tekshirish va oldini olish uchun qilamiz. Bu ma'lumotlar xizmatlarni taqdim etishda yuqori standartlarni saqlab qolish va tegishli choralarni ko'rishimiz uchun zarur.

3. IP-MANZIL, KUKILAR (COOKIES) VA MOBIL IDENTIFIKATORLAR

1.O‘z sayti faoliyati doirasida Kompaniya Kukilar (kuklar, cookies), piksellar (pixels) va lokal (mahalliy) saqlash joylari kabi (Sizning brauzeringiz yoki mobil qurilmangizdagi kabi) texnologiyalar yordamida muayyan ma‘lumotlarni to‘plab borishi mumkin.

2.KUKILAR (COOKIES) – bu uncha katta bo‘lmagan matnli fayllar bo‘lib, ular ma‘lumotlarni foydalanuvchining bevosita kompьyuterida, uning mobil telefonida yoki boshqa qurilmasining o‘zida saqlaydi.

3.Piksellar (pixels) – uncha katta bo‘lmagan raqamli tasvirlar, veb-sahifalarning bir qismi hisoblanib, ular boshqa serverga veb-sahifalarning ko‘rib chiqilish sonini aniqlash imkonini beradi va ulardan ko‘pincha kukilar (cookies) bilan uyg‘unlikda foydalaniladi. Kod qachonki (va qaysi sahifada) pikselь yuklanganida kuzatiladi, maqsad foydalanuvchining sahifa bilan yoki Saytning ma‘lum qismi bilan o‘zaro bog‘lanishini ko‘rsatishdir.

4.Kukilar (cookies) yordamida veb-server Foydalanuvchining kompьyuterida, uning mobil telefoni yoki boshqa qurilma(lari)da ustunliklar va sozlashlarni saqlab qo‘yish mumkin, u esa keyin navbatdagi kirilganda avtomatik ravishda tiklanadi. Yoki boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, kukilar (cookies) fayllari bularning barchasidan tashqari, Saytdan foydalanishni yanada qulayroq qilish uchun ham xizmat qiladi, demak, misol uchun Foydalanuvchi tizimga navbatdagi kirish chog‘ida jarayonni qaytarishiga hojat qolmaydi. Kompaniya doimiy bilan bir qatorda yana sessiyaviy kuklardan ham foydalanadi. Doimiy kuklar Foydalanuvchining kompьyuterida nisbatan uzoq davr mobaynida saqlanadi, sessiyaviy kuklar esa brauzer darchasi yopilishi bilan avtomatik ravishda o‘chiriladi.

5.Kompaniya uchinchi taraflarga, ya‘ni reklama va/yoki tahliliy xizmatlarni taqdim etuvchilarga bevosita Sayt yoki mobil ilovalar veb-sahifasida mana shu turdagi texnologiyalardan foydalangan holda ma‘lumotlar yig‘ishlariga ruxsat beradi. Ular to‘plagan ma‘lumotlar mana shu uchinchi tomonlarning amaldagi maxfiylik siyosatiga muvofiq himoya qilinishi shart.

4. SHAXSIY MA‘LUMOTLARDAN FOYDALANISH

Kompaniya xizmatlar ko‘rsatish maqsadida o‘zi to‘plagan ma‘lumotlardan foydalanishi mumkin, bu ma‘lumotlarni Kompaniya quyidagi maqsadlar uchun to‘playdi va joylashtiradi:

- mijozlarga ko‘rsatiladigan xizmatlarni ta‘minlash, shu jumladan foydalanuvchilarning akkauntlarni yaratish va ularni boshqarish, texnik qiyinchiliklarni bartaraf etish va turli funksiyalardan foydalanish imkoniyatini yaratish;
- o‘z servislari hamda uchinchi shaxslarning servislarida takliflar va tajribalar, shu jumladan reklamalarni moslaslashtirish;
- Foydalanuvchilarning umumiy va shaxsiy faolligini, ya‘ni muhim so‘zlar bo‘yicha izlash, e‘lonlarni joylashtirish va bitimlar tuzish bo‘yicha faolligi kabilarni nazorat qilish, shuningdek saytdagi trafikni boshqarish uchun;
- servis masalasi, mijozlarga xizmat ko‘rsatish yoki ruxsat etilgan har qanday aloqa kanallari orqali marketing kommunikatsiyasi masalalari bo‘yicha foydalanuvchilarimiz bilan bog‘lanish;
- servisimizni yaxshilash maqsadida ilmiy-tadqiqot va tahliliy tashabbuslarni amalga oshirish;
- OLX.UZ servislaridan Foydalanuvchilar bitimiga rioya etilishini ta‘minlash, shu jumladan muttahamlik va haqoratlashlarga qarshi kurashish maqsadida.

Kompaniya o‘z saytida to‘planadigan va qabul qilinadigan ma’lumotlarni, yuqorida sanab o‘tilgan maqsadlarning bajarilishi qancha vaqtni talab qilsa, shuncha vaqt davomida saqlash huquqiga ega.

5.MA‘LUMOTLAR ALMASHINUVI

1.Kompaniya biron-bir uchinchi mamlakatda joylashgan affillangan shaxslar (umumiy mulkchilik yoki Naspers Group umumiy nazorati ostida faoliyat yurituvchi kompaniyalar) bilan o‘zi to‘plagan ma‘lumotlarni almashinish huquqiga ega. Bu kompaniyalar olingan shaxsiy ma‘lumotlarni mazkur Maxfiylik siyosatining 4-bandida ko‘rsatilgan maqsadlar uchungina qayta ishlashi va ulardan foydalanishi mumkin. Bunda uzatilgan ma‘lumotlar ushbu maxfiylik siyosatining predmeti bo‘lib qolaveradi.

2.Kompaniya affillanmagan shaxslarga foydalanuvchilar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni agar buning uchun Foydalanuvchilarning shaxsan o‘zidan olingan muvofiq ruxsat bo‘lmasa yoki quyidagilardan o‘zga holatlarda taqdim etmaydi:

- Kompaniya o‘z xizmatlarining tarkibiy qismi bo‘lgan ba‘zi xizmatlarni taqdim etishda chetdan olingan (tashqi) ta‘minotchilar xizmatidan ham foydalanishi mumkin, bunday holatlarda ta‘minotchilar Kompaniya Sayti yordamida olingan shaxsiy ma‘lumotlardan foydalanish vakolatiga ega bo‘lmaydilar, shaxsiy ma‘lumotlar esa mazkur Maxfiylik siyosatining predmeti bo‘lib hisoblanadi.

3.Kompaniya qonun talablariga muvofiq xususiy shaxslar va davlat organlari bilan quyidagi maqsadlar uchungina to‘plagan ma‘lumotlari bilan almashinish huquqiga egadir:

- Saytda tovlamachilik va o‘z manfaati yo‘lida foydalanishga qarshi kurashishda;
- taxmin qilingan qonun buzilishlarini tekshirishda yoki Foydalanuvchilar tomonidan OLX.UZ servislaridan Foydalanuvchi bitimini har qanday buzilishlariga qarshi kurashishda.

4.Kompaniya O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq rasmiylashtirilgan vakolatli organlarining talablariga binoan foydalanuvchilar to‘g‘risidagi shaxsiy ma‘lumotlarni tegishli idoralarga taqdim etishga majbur.

5.Maxfiylik siyosatiga muvofiq Kompaniya Foydalanuvchi to‘g‘risidagi har qanday shaxsiy ma‘lumotlarni ijaraga bermaslik yoki sotmaslik majburiyatini oladi. Agar Kompaniya biznesi yoki biznesining ma‘lum bir qismi sotilsa yoki qayta tashkil etilsa, u holda Kompaniya o‘zining barcha yoki deyarli barcha aktivlarini Kompaniyaning yangi egasiga topshiradigan bo‘lsa, u holda, Sayt tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatning uzluksizligini ta‘minlash maqsadida foydalanuvchilarning shaxsiy ma‘lumotlari ham xaridorga topshirilishi mumkin.

6.Kompaniya muayyan shaxsga qarashli bo‘lmagan ma‘lumotlarni (Foydalanuvchilarni alohida identifikatsiya qilish imkoniyatini bermaydigan ma‘lumotlar) qanday xizmatlar yoki reklamalar Foydalanuvchilarni qiziqtirishi mumkinligini aniqlash, Saytdagi xizmatlar yoki servis sifati va umumiy samaradorligini yaxshilash maqsadlarida yoki Kompaniya fikriga ko‘ra ulkan ijtimoiy

farovonliklar keltirishi mumkin bo‘lgan ilmiy tadqiqotlarga o‘z hissasining qo‘shilishini ta‘minlash masadlarida xizmatlar ta‘minotchilariga, ishonchli hamkorlarga yoki ro‘yxatdan o‘tgan tadqiqotchilarga berishi mumkin.

7.Maxfiylik siyosatining 5-bo‘limida ko‘zda tutilgan shaxsiy ma‘lumotlarni uzatish holatlarida Foydalanuvchi to‘g‘risidagi shaxsiy ma‘lumotlar talab etilgan joyga berilgani haqida uni xabardor qilish Kompaniyaning ixtiyorida qoladi.

6.FOYDALANUVCHI NAZORATI

1.Kirish, Tahrirlash va O‘chirib tashlash: Ro‘yxatdan o‘tgan yoki Saytda e‘lon joylashtirgan Foydalanuvchilar o‘zlari taqdim etgan ma‘lumotlarga kirishlari, tahrirlashi yoki o‘chirib tashlashlari mumkin. Taqdim etilayotgan ma‘lumotlarning yoki Saytda berilgan xabarlarning aniqligi va to‘g‘riligiga Foydalanuvchining o‘zi javobgar bo‘ladi. Agar Foydalanuvchining akkauntlari identifikatsiya provayderi orqali yaratilgan bo‘lsa (masalan, FacebookConnect, Vkontakte kabi) ham, Foydalanuvchi identifikatsiya provayderining sozlash ilovalari (misol uchun, facebook.com, vk.com) orqali mazkur qaydlarni o‘chirishi yoki o‘zgartirishi mumkin. Joylashtirilgan ma‘lumotlar Foydalanuvchining Sayt veb-sahifasidagi yoki ilovalardagi “Mening profilim” shaxsiy kabinetida o‘zgartirilishi yoki o‘chirib tashlanishi mumkin.

2.Tashqi shaxslarni tanlash: saytda amalda bo‘lgan ba‘zi tashqi sub‘ektlar, masalan, Google Adwords foydalanuvchilarga foydalanuvchilarning faolligiga asoslanib, ma‘lumotlarni to‘plash va o‘z ma‘lumotlaridan reklama uchun foydalanishga bergan roziliklarini qaytarib olishlariga imkon beradi. Batafsil ma‘lumot va tanlash imkoniyatiga ega bo‘lish uchun http://www.networkadvertising.org saytiga kiring.

3.Kukilar (Cookies): asosiy kompьyuter va mobil veb-brauzerlarning aksari qismi (misol uchun, Safari, Firefox, Internet Explorer, Chrome, Opera) Foydalanuvchiga sizning tizimlaringizda Kukilar (Cookies) o‘rnatilishini cheklash yoki blokirovka qilishga imkon beruvchi boshqaruv elementlarini ta‘minlab beradi. Birinchi toifali (tez-tez kiriladigan saytlar) va boshqa domenlar (tez-tez kiriladiganlarga bog‘liq saytlar)ga nisbatan Kukilar (Cookies)ni o‘chirib qo‘yish ba‘zi holatlarda ushbu veb-saytlar funksionalligining cheklanishiga olib kelishi mumkin.

7.XAVFSIZLIK

Biz to‘playdigan barcha ma‘lumotlar ruxsatsiz kirish yoki ma‘lumotlardan foydalanishlarning oldini olish maqsadlarida, imkon doirasida,xavfsizlikni ta‘minlash chora-tadbirlari va texnik vositalar bilan himoyalangan. Kompaniya bilan affillangan shaxslar, ishonchli hamkorlar va tashqi ta‘minotchilar Kompaniyadan olgan ma‘lumotlardan bizning talablarimizga va ushbu Maxfiylik siyosati talablariga muvofiq foydalanish majburiyatini o‘z zimmalariga oladilar.

8.USHBU SIYOSATGA O‘ZGARTIRISHLARNING KIRITILISHI

1.Ushbu maxfiylik siyosati so‘nggi marotaba 11.12.2020 da yangilangan. Kompaniya ushbu maxfiylik siyosatini vaqt-vaqti bilan yangilab turishi mumkin, yangi tahrirdagi maxfiylik siyosati u mazkur bandda ko‘rsatilgan manzil bo‘yicha Internet tarmog‘ida joylashtirilgan vaqtdan boshlab

kuchga kiradi, agar yangi tahrirdagi Maxfiylik siyosatida boshqa narsa ko‘rsatilmagan bo‘lsa. Maxfiylik siyosatining amaldagi tahriri har doim quyidagi manzil bo‘yicha joylashtirilgan bo‘ladi.

2.Kompaniya tomonidan Maxfiylik siyosatiga har qanday o‘zgartirishlar kiritilgan taqdirda, agar Foydalanuvchi bu o‘zgartirishlarga rozi bo‘lmasa, undan bunday holatda Sayt servisidan foydalanishni to‘xtatish talab qilinadi. Foydalanuvchining Saytdan foydalanishda davom etish fakti uning tomonidan Maxfiylik siyosatining muvofiq tahririga rozi ekani va uni qabul qilishini tasdiqlaydi.